

Iqtidorli o`quvchilar uchun TasIMO testi

Savollar soni: 20 ta

Jami to`planadigan ball: 100 ball



Iqtidorli o`quvchilar uchun TasIMO testi

1. (3,1 ball) Ukam endi tug'ilganida mening yoshim 9 da edi. Hozir Men 13 yoshman, dadam va bobomning yoshlari mos ravishda 34 va 57 ga teng. Ukam necha yosh bo'lganida men, ukam, dadam va bobomning yoshlari yig'indisi 100 teng edi?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 7

2. (3,1 ball) Best guruhidagilarning $\frac{2}{5}$ qismidan ko'pi ammo $\frac{1}{2}$ qismidan kami o'g'il bolalardir. Best guruhining a'zolari soni eng kamida nechta bo'lishi mumkin?

A) 10 B) 15 C) 20 D) 40

3. (3,1 ball) Quyida berilgan rebusda bir xil harflar bir xil raqamlarni bildirsa, D ning qiymatini toping.

$$\begin{array}{r} \times BC \\ AA \\ \hline + BBB \\ BBB \\ \hline BDD B \end{array}$$

A) 4 B) 6 C) 0 D) 8

4. (3,1 ball) ABCDE muntazam beshburchakning tomoni 2 m ga teng. A,B,C,D va E uchlarida mos ravishda 6,16,15,10 va 18 ta talabalar o'tiribdi. O'qituvchi har bir uchdagi talabalar sonini teng qilishni xohlayapti, shuning uchun ba'zi talabalar boshqa uchga o'tishlari kerak. Ular faqat beshburchak tomoni bo'ylab harakatlana olishadi. Talabalar eng kamida jami necha metr yo'l yurishadi?

A) 10 B) 15 C) 20 D) 24

5. (3,1 ball) $A=202420242024 \times 2025202520252025$
va $B=202520252025 \times 2024202420242024$ bo'lsa $A - B = ?$


A) 0 B) 2024 C) 2025 D) $2024 \cdot 2025$

Iqtidorli o`quvchilar uchun TasIMO testi

6. **(4,2 ball)** Aniqki, $\frac{23}{30} = \frac{57}{78}$ tenglik noto'g'ri. Ammo qandaydir bitta son 23,30,57,78 larning har biridan ayirildi va natijada to'g'ri tenglik hosil bo'ldi. Ayirilgan sonni toping.
- A) 3 B) 5 C) 6 D) 10
7. **(4,2 ball)** A shahardan B shaharga turli vaqtda ikki avtomobil yo'lga chiqdi. Birinchi mashina ikkinchi mashinaga qaraganda 20 minut avvalroq yo'lga chiqqan edi va uning tezligi 90 km/h. Ikkinchi mashina tezligi esa 120 km/h. Agar A va B shaharlar orasidagi masofa 90 km bo'lsa, mashinalardan biri B ga kelganda ikkinchisi undan necha km orqada bo'ladi?
- A) 10 B) 15 C) 12 D) 20
8. **(4,2 ball)** 64 ta iphone narxi 48 ta planshet narxiga teng. 25 ta planshetning narxi esa 10 ta kompyuter narxiga teng. Agar a ta iphone narxi, b ta planshet narxi hamda c ta kompyuter narxlari o'zaro teng bo'lsa, a+b+c ning eng kichik qiymatini toping.
- A) 35 B) 39 C) 41 D) 45
9. **(4,2 ball)** Shavkat 31 ta ko'zgularini aravada tashitirish uchun aravakash yonladi. Aravakash har bir butun olib borgan ko'zgular uchun 2\$ oladigan va har bir sindirgan ko'zgulari uchun 7\$ to'laydigan bo'ldi. Agar yakunda aravakash 26\$ pulni qo'lga kiritgan bo'lsa nechta ko'zgu singan?
- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
10. **(4,2 ball)** Elektron soat tablosi 4 ta raqamdan iborat bo'ladi ya'ni soat kechki o'nni 22:00 deb ko'rsatadi. U holda 2 sutka davomida nechta shunday vaqt borki tablodagi raqamlari ko'paytmasi 8 ga teng bo'ladi?
- A) 12 B) 24 C) 10 D) 20

Iqtidorli o'quvchilar uchun TasIMO testi

- 11. (5,3 ball)** Quyida berilgan rasmda yettita tomonlari teng bo'lgan uchburchak yordamida umumiy shakl hosil qilingan. Agar bu uchburchaklarning har birining perimetri 24 cm bo'lsa, bu shaklning perimetrini toping.



- A) 120 cm B) 112 cm C) 126 cm D) 128 cm

- 12. (5,3 ball)** Quyida natural sonlar ma'lum qonuniyat asosida qatorlarga yozilyapdi. O'ninchi qatordagi birinchi turgan va oxirgi turgan sonlar yig'indisini toping.

1
2 3
4 5 6
7 8 9 10
11 12 13 14 15

...

- A) 91 B) 82 C) 122 D) 101

- 13. (5,3 ball)** Oltita 1,2,3,4,5,6 raqamlaridan foydalanib bitta bir xonali, bitta ikki xonali, bitta uch xonali son hosil qilindi. Bunda har bir raqamdan bir martadan foydalanildi va hamma raqamdan foydalanildi. Bir xonali son bilan ikki xonali son yig'indisi 47, ikki xonali son bilan uch xonali son yig'indisi 358 ga teng bo'ldi. Shu uchta son yig'indisini toping.

- A) 360 B) 363 C) 368 D) 370

- 14. (5,3 ball)** Hoshimning hamyonida uch turdagi (100 so'mlik, 200 so'mlik va 500 so'mlik) tangalari bor. Ularning soni 11 ta va miqdori 3600 so'm ga teng. Agar 200 so'mlik tangalar soni bitta bo'lmasa, nechta 500 so'mlik tangasi bor?

- A) 2 B) 3 C) 4 D) 6

Iqtidorli o'quvchilar uchun TasIMO testi


- 15. (5,3 ball)** Har bir qiz bola ot minmoqchi , ammo ularning faqat $\frac{10}{13}$ qismigagina ot yetadi. Agar otlarning va qizlarning jami oyoqlari soni 990 ga teng bo'lsa, nechta qiz ot minish uchun navbatini kutishi kerak?

A) 195 B) 150 C) 45 D) 30

- 16. (7,4 ball)** Nodir koptoklar va o'yinchoqlar sotiladigan do'koniga ma'lum midorda pul bilan bordi. Nodir 3 ta koptok va 5 ta o'yinchoq sotib olsa uning yonida 38000 so'm puli qoladi. Agar u 7 ta koptok va 1 ta o'yinchoq sotib olsa uning yonida 6000 so'm puli qoladi. Shu ma'lumotlardan foydalanib koptok va o'yinchoqning narxlari orasidagi farqni toping.

Javob_____

- 17. (7,4 ball)** Quyida berilgan berilgan 16 burchakning uchlariga(A,B,C,D...O,P) ketma-ket sonlar yozilgan. Agar 16 burchak ichida joylashgan 8 burchakning (BDFHJLNP) uchlaridagi sonlar yig'indisi 88 bo'lsa, E nuqta o'rnida turuvchi sonni toping.



Javob_____

- 18. (7,4 ball)** Mushuk tutgan qora sichqonlar soni oq sichqonlar sonidan 3 marta ko'p. Har kuni mushuk 6 ta qora sichqon va 4 ta oq sichqon yeydi. Bir necha kundan keyin unda 60 ta qora va 4 ta oq sichqon qoldi. Mushuk jami nechta sichqon tutgan?

Javob_____

Iqtidorli o`quvchilar uchun TasIMO testi

19.(7,4 ball) Konsert uchun chiptalarning narxi kattalar uchun 26\$, o'smirlar uchun 18\$ va bolalar uchun 10\$ ga teng. Agar konsertga jami 131 kishi va ular uchun jami 2022\$ pul to'langan bo'lsa konsertga kirgan bolalar soni kattalar sonidan nechta ko'p?

Javob_____

20.(7,4 ball) Bazmda Boburdan boshqa har bir kishi o'zaro bir – biri bilan qo'l berib salomlashdi. Bobur esa odamlarning ba'zilari bilan salomlashdi. Hech bir ikki odam bir – bir bilan bir martadan ko'p so'rashgani yo'q. Agar jami salomlashishlar soni 2025 ga teng bo'lgan bo'lsa, Bobur bilan nechta odam bilan salomlashgan?

Javob_____